

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/06.04.2024.Tar.20.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI**

RUSTAMOVA MADINA MUSOQULOVNA

**O‘ZBEKISTONDA 1991-2022-YILLARDA XOTIN-QIZLARNING
IJTIMOIY-IQTISODIY MUAMMOLARI VA YECHIMLARI:
TARIXIY TAHLIL (Samarqand viloyati misolida)**

07.00.01 – O‘zbekiston tarixi

**TARIX FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD)

Rustamova Madina Musoqulovna

О‘zbekistonda 1991–2022-yillarda xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy muammolari va yechimlari: tarixiy tahlil (Samarqand viloyati misolida) 3

Рустамова Мадина Мусокуловна

Социально-экономические проблемы женщин Узбекистана в 1991–2022 годах и пути их решения: исторический анализ (на примере Самаркандской области)..... 27

Rustamova Madina Musoqulovna

Socio-economic problems and solutions of women in 1991-2022 in Uzbekistan: historical analysis (example of Samarkand region)..... 51

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works 55

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/06.04.2024.Tar.20.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI**

RUSTAMOVA MADINA MUSOQULOVNA

**O‘ZBEKISTONDA 1991-2022-YILLARDA XOTIN-QIZLARNING
IJTIMOIY-IQTISODIY MUAMMOLARI VA YECHIMLARI:
TARIXIY TAHLIL (Samarqand viloyati misolida)**

07.00.01 – O‘zbekiston tarixi

**TARIX FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar Vazirligi huzuridagi Oliy Attestatsiya Komissiyasi Byulletenida V2024.4.PhD/Tar2126 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb sahifasida (www.samdu.uz) va "ZiyoNET" Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Normurodova Guzal Bekmurodovna
tarix fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Aminova Aziza Marksovna
tarix fanlari doktori, dotsent

Ergasheva Yulduz Alimovna
tarix fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Qarshi davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalarni beruvchi DSc.03/06.04.2024.Tar.20.05 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "25" aprel kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15. Tel.: (99866) 239-11-40, (99866) 239-18-92; Faks: (99866) 239-11-40; e-mail: rektor@samdu.uz).

Dissertatsiya bilan Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (33 raqam bilan ro'yxatga olingan) (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15-uy). Tel.: (99866) 239-11-40, (99866) 239-18-92; faks: (99866) 239-11-40.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "11" aprel kuni tarqatildi.
(2025-yil "11" aprel dagi 1 raqamli reyestr bayonnomasi).



B.E.Ergashev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, t.f.d., professor

F.A.Narmanov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, PhD

I.M.Saidov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy Kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi o'rinbosari, t.f.d., professor

U. Ergashev

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyo mamlakatlarida ayollarning jamiyatda chinakam teng huquqliligini qaror toptirishga, ijtimoiy taraqqiyot barqaror rivojlanishning asosi sifatida qaralmoqda. Shu bois inson huquqlari sohasidagi barcha xalqaro huquqiy hujjatlarda teng huquqlilik va o'zgalarni kamsitmaslik tamoyillari izchil rivojlanib bormoqda. Bu borada BMT 1996-yildan boshlab insoniylik mezonlarining yana bir indeksini kiritdi, ya'ni bu ayollar va erkaklar o'rtasidagi aniq teng huquqlilikni ta'minlash hamda ayollarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish, gender notengligini bartaraf etish bilan bog'liqdir.

Jahonda gender munosabatlarining muammolari yechimi bo'yicha xalqaro markazlarda yetarli tajriba to'plangan. Mazkur tajriba doirasida insonning barqaror rivojlanishiga erishishga qaratilgan davlat dasturlari, loyihalar va strategiyalari ishlab chiqilgan bo'lib, gender jihatidan mutanosib yondashuvni tatbiq etish va inobatga olish lozimligini tushunishni rivojlantirishga yordam beradi. Shu jihatdan, gender tadqiqotlarni O'zbekiston misolida ilmiy tadqiq etish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Yangi O'zbekistonning insonparvarlik siyosati bobidagi ulkan yutuqlaridan biri ham, xotin-qizlarga oid davlat siyosatining tubdan o'zgarishidir. Bu borada Prezident Sh.Mirziyoyev "Xotin-qizlarning huquq va manfaatlari ta'minlangan jamiyatda, albatta, tinchlik, adolat, erkinlik va farovonlik bo'ladi" deb ta'kidlaydi¹. So'nggi yillarda xotin-qizlarga oid muammolarni alohida respublika hududlari misolida o'rganishga zarurat tobora sezilib bormoqda. Bu esa, o'z navbatida xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy hayotidagi muammolarning oldini olishga va ularga yechim topishga xizmat qiladi. Shu nuqtayi nazardan, ushbu dissertatsiyada Samarqand viloyati misolida 1991–2022-yillarda xotin-qizlarning ijtimoiy va iqtisodiy muammolarini aniq va izchillikda tarixiy tahlil qilish maqsad qilindi. Bu esa tadqiqot mavzusining fan sohasidagi dolzarbligini belgilaydi.

Ushbu dissertatsiya O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-sentabrdagi "Xotin-qizlar tazyiq va zo'rvonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi O'RQ 561-son, "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi O'RQ 562-son qonunlari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2021-yil 28-maydagi "2030-yilga qadar O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasi" SQ-297-IV-son Qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 2-fevraldagi "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va oila instituti to'g'risida"gi PF-5325-son Farmoni, 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmonlari hamda mavzuga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

¹ Elektron resurs: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Xalqaro xotin-qizlar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi // Yangi O'zbekiston, 2021-yil mart.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Dissertatsiya ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” nomli ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Mustaqillik yillarida jamiyat hayotining barcha jabhalarida xotin-qizlar rolini kuchaytirish ularning huquq hamda qonuniy manfaatlarini himoya etish yuzasidan salmoqli ishlar amalga oshirildi. Xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy, demografik jarayonlarini tadqiq etishga bag‘ishlangan ilmiy adabiyotlar, dissertatsiya tadqiqotlari va xorijiy nashrlarni tahlil qilinar ekan, ularning mazmun-mohiyati, amalga oshirilgan joyi va ilgari surilgan ilmiy xulosalariga ko‘ra: 1) O‘zbekistonda amalga oshirilgan tadqiqotlar hamda 2) xorijiy izlanishlarga ajratish mumkin.

Mavzuga doir tarixshunoslik ishlarini keng tahlili alohida 1-bobning birinchi paragrafida batafsil yoritib berilgan.

Dessertatsiya mavzusining tadqiqot bajarilayotgan oliy ta‘lim muassasasi ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida amalga oshirilayotgan ATD – 1 “O‘zbekiston hududida davlatchilik tarixi: an’analar va transformatsion jarayonlar” (2021–2025-yillar) mavzusidagi loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi: 1991–2022-yillarda O‘zbekistonda xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy muammolari va yechimlari Samarqand viloyati misolida ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari: Tadqiqotning maqsadidan kelib chiqib quyidagi vazifalar belgilandi:

- Tadqiqotning tarixshunoslik muammosini tahlil qilish;
- Mustaqillik davrida O‘zbekistonda xotin-qizlarga oid davlat siyosati va uning huquqiy asoslarining rivojlanishini yoritib berish;
- Samarqand viloyatida xotin-qizlarni ijtimoiy himoyalash va oila mustahkamligi va nikoh munosabatlarini o‘rganish;
- xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy muammolari: dinamikasi, kasb va mehnat bandligi ko‘rsatkichlarini aniqlash;
- Samarqand viloyatida ayollarning davlat va jamiyat sohalaridagi o‘rnini ochib berish;
- Samarqand viloyati xotin-qizlarning ilm-fan, ta‘lim va innovatsiyalarga qo‘shgan hissasini tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqotning obyekti: Mustaqillik yillarida Samarqand viloyatidagi xotin-qizlarining ijtimoiy-iqtisodiy muammolari va ularning yechimlari tarixiy tahlilidan iborat.

Tadqiqotning predmeti: Samarqand viloyatida xotin-qizlarining 1991–2022-yillardagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolari va yechimlarini tahlil qilish tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada tarixiylik, tizimlilik, qiyosiy tarixiy tahlil va muammoviy-xronologik usullardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

O‘zbekistonda xotin-qizlarga oid davlat siyosati asosiy ko‘rsatkichlarining ijtimoiy-iqtisodiy yo‘nalishda Samarqand viloyati misolidagi natijalari xotin-qizlarning davlat muassasalari va NNT faoliyatidagi ishtiroki natijalari dalillangan;

1991–2022-yillarda Samarqand viloyati xotin-qizlari ijtimoiy-iqtisodiy muammolari tahliliga ko‘ra, viloyatning Urgut tumanida erta nikoh, Samarqand shahri, Samarqand tumani, Toyloq, Oqdaryo hududida oilaviy ajrim va ishsizlik kabi ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va ularning sabablari aniqlangan;

Samarqand viloyatining 1991–2022-yillarga doir iqtisodiy ko‘rsatkichlarida xotin-qizlarning tadbirkorlik, kichik biznes, ishlab chiqarish sohasidagi natijadorligiga qaramasdan viloyat ayollarining asosiy qismi haq to‘lanmaydigan mehnat bilan bandligi isbotlangan;

Respublika intellektual taraqqiyotida munosib o‘ringa ega bo‘lgan Samarqand viloyatining tumanlar (hudud) kesimida xotin-qizlarining ilm-fan, ta‘lim, innovatsiyalar, sog‘liqni saqlash sohasidagi salohiyati ko‘rsatkichlari dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

O‘zbekiston Milliy arxivi, Samarqand viloyati hokimligi arxivi, viloyat xotin-qizlar qo‘mitasi, Samarqand viloyat bandlik boshqarmasi ma‘lumotlari orqali Samarqand shahri, Samarqand tumani, Kattaqo‘rg‘on, Oqdaryo, Ishtixon tumanlaridagi bir qator mahallalarda xotin-qizlarni ijtimoiy himoyalash va oila mustahkamligini ta‘minlash, oilaviy ajrimlarga oid muammolarga aniqlik kiritilgan;

1991–2022-yillarda Samarqand viloyati xotin-qizlarning dinamikasi va ularning mehnat bandligi, moddiy ta‘minoti, kasbga yo‘naltirilishi va iqtisodiy faolligi bilan bog‘liq o‘zgarishlarga oid bir qator yangi ma‘lumotlar ochib berilgan;

Samarqand viloyati xotin-qizlarining ijtimoiy-siyosiy, ma‘naviy va iqtisodiy hayotining davlat boshqaruvi, ishlab chiqarish, tadbirkorlik, sog‘liqni saqlash, ta‘lim, madaniyat kabi sohalarda samarali mehnat qilganligi aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi: Dissertatsiya O‘zbekiston Milliy arxivi, Samarqand viloyati hokimligi arxivi, viloyat xotin-qizlar qo‘mitasi joriy arxivi, O‘zbekiston davlat Statistika qo‘mitasi, Samarqand viloyat bandlik boshqarmasi arxivi, Samarqand viloyat Statistika ma‘lumotlari hamda nodavlat notijorat tashkilotlarning joriy arxivlari jamg‘armalarida saqlanayotgan ko‘plab hujjatlarga asoslanganligi, tadqiqot ma‘lumotlarining amaliyotga joriy etilganligi va olingan natijalarning vakolatli idoralar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

1991-2022-yillarda O‘zbekistonda xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy muammolari va ularning yechimlarini Samarqand viloyati misolida ilmiy o‘rganish va nazariy-metodologik xulosalarni ishlab chiqilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati Markaziy Osiyo, jumladan, O‘zbekiston gender tenglik munosabatlari bilan bog‘langan tadqiqotlarni bajarilishi, shuningdek, ta‘lim muassasalarida O‘zbekistonning eng yangi tarixi fani va boshqa kurslarni tayyorlash, o‘quv qo‘llanmalar yaratish va ilmiy-amaliy loyihalarni tayyorlashda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O‘zbekistonda 1991–2022-yillarda xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy muammolari va yechimlari Samarqand viloyati misolida tahlil qilingan ilmiy natijalar va xulosalar asosida:

Samarqand viloyati misolida xotin-qizlarning jamiyat hayotidagi rolini oshirish, ijtimoiy muammolarini hal qilishga qaratilgan davlat siyosati hamda Samarqand shahri va tumani, Kattaqo‘rg‘on, Tayloq, Oqdaryo, Ishtixon kabi bir qator tumanlarning mahallalarida xotin-qizlarga tegishli ijtimoiy, iqtisodiy muammolari va yechimlariga doir ilmiy xulosalardan O‘zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi faoliyatida foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi oila va xotin-qizlar qo‘mitasining 2024-yil 1-apreldagi 04–01/108–son ma‘lumotnomasi). Ilmiy xulosalar O‘zbekistonning eng yaxshi tarixi fanida gender tenglik masalalari to‘g‘risidagi ilmiy bo‘shliqlarni to‘ldirishga xizmat qilgan;

Samarqand viloyatining demografik jarayonlarida xotin-qizlarning holati, ularning kasbga yo‘naltirish, mehnat bandligini ta‘minlash yuzasidan davlat dasturi asosida ish bilan ta‘minlash, kreditlar ajratish orqali kichik biznes, ishlab chiqarish, tadbirkorlikka yo‘naltirilganligi kabi ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal qilish orqali viloyat xotin-qizlarining iqtisodiy faolligini oshirish darajasiga oid ilmiy natijalar O‘zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi faoliyatida foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo‘mitasining 2024-yil 1-apreldagi 04–01/108–son ma‘lumotnomasi). Ushbu ilmiy natijalar keng jamoatchilikka Samarqand viloyati xotin-qizlarining ijtimoiy-iqtisodiy muammolari mohiyatiga oid ma‘lumotlarni yetkazishga xizmat qilgan;

Viloyat xotin-qizlarining iqtisodiy-ijtimoiy, siyosiy, ma‘naviy sohalarda, xususan, davlat boshqaruvi, ishlab chiqarish, tadbirkorlik, sog‘liqni saqlash, ta‘lim, madaniyat sohalardagi samarali mehnati, ularning oila va jamiyatdagi mavqeyini yuksaltirishda, gender tenglikni ta‘minlashda ijtimoiy-siyosiy subyekt sifatidagi roli to‘g‘risidagi ilmiy xulosalardan SamDU bakalavr yo‘nalishlarida o‘qitiluvchi “O‘zbekistonning eng yangi tarixi” nomli o‘quv qo‘llanmani tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 24-iyuldagi 571-sonli Qarori asosida 2024-yil 8-apreldagi 10–1634-son ma‘lumotnoma). Natijada tarixiy ma‘lumotlar “O‘zbekistonda demokratik davlat va fuqarolik jamiyati asoslarining shakllanishi” mavzusining ilmiyligini oshirishga, talabalarda fanga nisbatan xulosalarning mustahkamlanishiga xizmat qilgan;

Samarqand viloyati xotin-qizlarining ko‘zdan kechirilayotgan davrda ilm-fan, ta‘lim, innovatsiyalarga qo‘shgan hissalar, jumladan, olima ayollarning ta‘lim, sog‘liqni saqlash, ijtimoiy va gumanitar sohalar rivojidadagi o‘rni, maorif tizimidagi roli va davlat mukofoti sovrindorlariga oid ilmiy natijalardan SamDU fan yo‘nalishlarida o‘tadigan “O‘zbekistonning eng yangi tarixi” nomli o‘quv qo‘llanmani yozishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 24-iyuldagi 571-sonli Qarori asosida 2024-yil 8-aprel 10–1634-son ma‘lumotnoma). Natijada o‘quv qo‘llanmasining “Yangi O‘zbekistonda milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari” mavzusi tarixiy ma‘lumotlar bilan boyitilib, talabalarda tarixiy bilimlarni takomillashtirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijasida olingan xulosa va ilmiy yangiliklar 9 ta ilmiy-amaliy anjumanda, shulardan 2 ta xalqaro, 7 ta respublika konferensiyalarida aprobatsiyadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 20 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarida 11 ta maqola, shundan 5 ta respublika va 6 ta xorij jurnallarida chop etilgan.

Dissertatsiyaning tarkibiy tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yxati, ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning tadqiqot qismi 129 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tanlangan mavzuning dolzarbligi asoslanib, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti belgilab olingan. Tadqiqotning fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilib, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan. Olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan holda nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, aprobatsiyasi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Mustaqillik yillarida O'zbekistonda gender tenglik siyosati tarixi: muammolar va yechimlar”** deb nomlangan birinchi bobida tadqiqotning tarixshunoslik muammosi hamda mustaqillik davrida O'zbekistonda xotin-qizlarga oid davlat siyosati va uning huquqiy asoslarining rivojlanishi tahlil qilingan.

Tadqiqot mavzusi shu vaqtga qadar alohida masala sifatida o'rganilmagan, biroq O'zbekistonda gender tenglik, ayollarning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy hayotdagi o'rni muammolari yuzasidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlarni mazmun-mohiyati, yo'nalishi, amalga oshirilgan joyi va ilgari surgan ilmiy xulosalariga ko'ra ikki guruhga: 1) O'zbekistonda amalga oshirilgan tadqiqotlar va 2) xorijiy izlanishlarga ajratish mumkin. Qadimgi (musulmon dini qabul qilinguncha) davr (eramizning VIII asrigacha) – O'rta Osiyoda gender munosabatlar va madaniyati rivoji tarixida alohida sahifani tashkil etadi. Tarixiy manbalar tahlilidan ma'lum bo'ladiki, O'rta Osiyoda ayollar jamiyatning teng huquqli a'zosi sifatida tarixiy jarayonlarga faol ta'sir ko'rsatgan. Mamlakat siyosiy hayotida tutgan roli, davlat va harbiy ishlarda, iqtisodiy masalalarning hal etilishida ayollarning maqomi ko'pincha jamiyatda erkaklarnikiga nisbatan yuqoriroq deb tan olingan². Tarixga nazar tashlar ekanmiz, hozirgi davrda ayollarga munosabat masalasida talab sug'orilgan xalqimizda azaldan mavjudligining guvohi bo'lamiz. Biroq, ayniqsa, so'nggi o'rta asrlarga kelib, diniy mutaassiblikning kuchayib borishi oqibatida xotin-qizlar ijodi uchun ijtimoiy sohalar, rasmiy marosimlar va tadbirlarda qatnashish taqiqlangan edi.

² Gender munosabatlari nazariyasi va amaliyotiga kirish. – Toshkent, 2007. – B.378.

Jamiyat hayotida xotin-qizlar va ularning ijtimoiy faoliyati haqidagi qarashlar va ta'limotlar G'arb hamda Sharq falsafiy taraqqiyotida muhim o'rin egallaydi. Shu o'rinda, Abu Nasr Farobiy, Abu Rayxon Beruniy, Ibn Sino, Alisher Navoiy va boshqalarning asarlarida oila, xotin-qizlar va farzand tarbiyasi bilan bog'liq jihatlar atroflicha o'rganilgan. Milliy taraqqiyparvarlardan M.Behbudiy, M.Abdurashidxonov, A.Avloniy, A.Shakuriy, A.Fitrat, A.Cho'lpon va boshqa jadidlar o'z qarashlarida xotin-qizlarning o'qimishli bo'lishiga ham katta e'tibor qaratgan.

Xotin-qizlarning mustaqillik yillarida huquq hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilish, jamiyatning barcha jabhalarida ayollarning rolini mustahkamlashga qaratilgan ijobiy ishlar amalga oshirildi. Birinchi guruhga tarixchilar, sotsiologlar, iqtisodchilar, faylasuflar singari turli soha vakillari tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlar, chop etilgan ilmiy adabiyot va maqolalar kiradi. Mazkur ilmiy adabiyotlarda asosan O'zbekistonda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotdagi o'rni, oila va ayollar muammosi, gender tengligi masalalar yangicha yondashuvlar asosida tadqiq qilingan. D.Alimova, T.Norboyeva, D.Alimjanova, N.Azimova, J.Shermumammedova, E.G'oziyev, R.Aminova, V.Karimova, M.Salayeva, M.Fayziyeva, F.Ahmedshina, X.Kenjayeve, M.Shamsiyeva, M.Baltabayeva, N.Toliboyeva, G.G'aniyeva, M.Xolmatova, S.Safoyeva, G.Matkarimova, Sh.Hamrayeva, E.Sultonova, D.Ro'ziyeva, O.Musurmonova, M.Mamatov, K.Nasriddinov, S.Radjabova, M.O'zbekov, B.Ochilova, M.Saidov, O.Raxmonkulova, M.Davlatshin, R.Ubaydullayeva, O.Shamsiyeva, N.Hasanova va boshqalar shu masalalar yuzasidan ishlar olib borishgan³.

³Алимова Д.А. Женский вопрос в Средней Азии: История изучения и современные проблемы. – Ташкент: Фан, 1991. – С. 133; Alimova D.A. O'zbekiston ijtimoiy fanlarida xotin-qizlar muammolarining o'rganilishi va muammolari // O'zbekistonda oila, davlat va jamiyat qurilishida ayollarning roli va gender muammolari. – Tashkent: Fan, 1999. – B. 16-20; Alimjonova D. Gender tenglik barqaror inson rivojlanishining omili sifatida. "O'zbekiston Respublikasi Oila va Mehnat kodekslarining gender ekspertizasi". – Toshkent, 2008; Azimova N., Shermumammedova J. Gender va oila // Gender munosabatlari nazariyasi va amaliyotiga kirish. – Toshkent, 2007; Kenjayeve X. Ayollar ijtimoiy faolligini oshirishda fuqarolik institutlarining o'rni "Scientific Progress" Scientific Journal. Volume: 1, Issue: 6; Shamsiyeva M. "O'zbekiston xotin-qizlarni ijtimoiy himoya qilishda davlat va nodavlat notijorat tashkilotlarining ahamiyati (1991–2010 yillar). Baltabayeva M. "O'zbekiston Respublikasi xotin-qizlarining kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishdagi ishtiroki" (1991–2019 yillar). Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2019.; Toliboyeva N. O'zbekistonda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishdagi faoliyati (1991-2019 yillar). Tarix fanlari bo'yicha (PhD) avtoreferati. Toshkent, 2020; Xolmamatova M.X. Oilaviy munosabatlar madaniyatini takomillashtirish va sog'lom avlodni tarbiyalashning ijtimoiy va falsafiy muammolari. Falsafa fanlari bo'yicha (PhD) avtoreferati. – Toshkent, 1998.; Safayeva S.X. Ayollar masalasi: umumijtimoiy va milliy jihatlar. – Toshkent: O'zbekiston, 2003. – B.158; Matkarimova G.A. Xalqaro va milliy huquqda ayollarning gender va reproduktiv huquqlari. Yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) avtoreferati, // Sultonova E. Ayollar davlatning rivojlanish strategiyasida (Global muammo sifatida). – Toshkent: JIDU, 2005. – B.250; Ro'ziyeva D.M. Mustaqillik yillarida O'zbekiston xotin-qizlarining ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotidagi ishtiroki (Navoiy viloyati misolida). Tarix fanlari bo'yicha (PhD) avtoreferati. – Buxoro, 2022.; Raxmonkulova O. O'zbekiston ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy soha islohotlarida xotin-qizlarning o'rni (Janubiy viloyatlar misolida 1991-2020 yy.). Tarix fanlari bo'yicha (PhD) avtoreferati. – Qarshi, 2022; Maksakova L.P. Migration situation in the Republic of Uzbekistan. – Toshkent, 2009. – P.160. (In Russ.). – Toshkent, 2004. – B.22; Shoumarov G'. Oila psixologiyasi. – Toshkent, 2010. – B.160; Fayziyeva M., Jabborov A. Oilaviy munosabatlar psixologiyasi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2007; Hasanova N. O'zbekistonda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlardagi ishtiroqi (1991–2021-yillar Andijon viloyati misolida). Tarix fanlari bo'yicha (PhD) avtoreferati. – Andijon, 2024. va boshqalar.

Dastlab muammoning o'rganilishini tarixiy yo'nalishda amalga oshirilgan ilmiy izlanishlarga qaratamiz. Yirik tarixchi olim D.A.Alimova O'zbekistonda ayollarga oid tarixshunoslik masalasini sovet davrida va istiqloq yillarida o'rganib bo'lib, mavzu doirasida bir qator kitob, maqola, ocherklar yaratgan. Tarixchi olimlardan prof. F.Axmedshina O'zbekiston xalqlari tarixi, qadimgi dunyo tarixi va jamiyat taraqqiyotida gender tengligi muammolariga bag'ishlangan tadqiqotlari yo'nalishida qo'llanma va ko'plab ilmiy maqolalar e'lon qilgan⁴. N.Azimova ham ayollarni va xotin-qizlarning ijtimoiy demografik ko'rsatkichlari, ularni ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga oid ilmiy ishlar olib borgan. 2007-yilda olim O'zbekiston Respublikasida gender va oila masalalariga oid ilmiy tahlillarni G'arb va Sharq jamiyatlari misolida tarixiy, etnografik jihatdan asoslab keltiradi⁵.

N.Toliboyevaning "O'zbekiston xotin-qizlarining ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishdagi faoliyati (1991–2019 yy.)" nomli dissertatsiyasida xotin-qizlarning davlat va jamiyat boshqaruvidagi ishtiroki, ayollarning ijtimoiy-huquqiy muammolari bartaraf etilishi, ayollarning huquq va erkinliklarining nazorati masalalari tahlil qilingan⁶. 1991–2020-yillarda O'zbekistonda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy soha islohotlarida tutgan o'rnining janubiy viloyatlar misolidagi holati O.Raxmonkulova tomonidan tadqiq etildi. Mazkur tadqiqotda mamlakatda ijtimoiy, siyosiy sohalarda amalga oshirilayotgan islohotlarda xotin-qizlarning o'rni arxiv hujjatlari asosida yoritib berildi⁷. D.Ro'ziyeva tomonidan ayollarga oid davlat siyosatini Navoiy viloyati xotin-qizlarining oila va jamiyatdagi mavqeyini yuksaltirishda, gender tenglikni ta'minlashda ularning davlat, jamiyat boshqaruvida faol ishtiroki "Mustaqillik yillarida O'zbekiston xotin-qizlarining ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotidagi ishtiroki (Navoiy viloyati misolida)" dissertatsiyasida yoritib berildi⁸. S.Rajabova Surxandaryo viloyatida xotin-qizlar ijtimoiy mavqeyi, xotin-qizlarning boshqaruv va tadbirkorlik faoliyatida ishtiroki, viloyat sanoatida xotin-qizlarning o'rni hamda boshqa ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy jarayonlardagi faoliyatini atroflicha tahlil etdi⁹.

O'zbekiston Respublikasidagi ayollarning jamiyat hayotida tutgan o'rni va roli masalalarini Andijon viloyati misolidagi holati va tahlili tadqiqotchi

⁴ Axmedshina F. Шнырова О. Школьников И. Основные направления феминистской теории // Gender munosabatlari nazariyasi va amaliyotiga kirish. – Toshkent, 2007. – B.60-78. Shu mual. Gender tenglik ko'lamini kengaytirish xorij tajribasi // Gender munosabatlari nazariyasi va amaliyotiga kirish. – Toshkent, 2007. – B.117-134.

⁵ Azimova N., Shermuxamedova J. Gender va oila // Gender munosabatlari nazariyasi va amaliyotiga kirish. – Toshkent, 2007. – B. 60-78; Azimova N., Alimova D. "Women's Position in Uzbekistan Before and After Independence" in Feride Acar and Ayse Gunes-Ayata, eds., Gender and Identity Construction: Women of Central Asia, the Caucasus and Turkey (Leiden, 2000), – Pp. 294-295. <https://www.hrw.org/reports/2001/uzbekistan/uzbek0701-01.htm>

⁶ Toliboyeva N. O'zbekiston xotin-qizlarining ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishdagi faoliyati (1992-2019 yy). Tarix fanlari (PhD) avtoreferati. – Toshkent, 2020. – B.56.

⁷ Raxmonkulova O. O'zbekiston ijtimoiy siyosiy, iqtisodiy va madaniy soha islohotlarida xotin-qizlarning o'rni (Janubiy viloyatlar misolida, 1991-2020 yillar). Tarix fanlar bo'yicha (PhD) avtoreferati. – Qarshi, 2022. – B.57.

⁸ Ro'ziyeva D. Mustaqillik yillarida O'zbekiston xotin-qizlarining ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotidagi ishtiroki (Navoiy viloyati misolida). Tarix fanlari bo'yicha (PhD) avtoreferati. – Buxoro, 2022. – B.56.

⁹ Radjabova S. Surxondaryo viloyatining ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotida xotin-qizlarning tutgan o'rni (1991-2020 yillar). Tarix fanlari (PhD) avtoreferati. – Termiz, 2022. – B.55.

N.Hasanovaning tadqiqotida yoritib berilgan¹⁰. Ta’kidlash lozimki, muammoning o’rganilishi, shuningdek, sotsiolog, huquqshunos, faylasuf, pedagog olimlardan T.Norboyeva, D.Alimjanova, J.Shermuxeammedova, V.Karimova, M.Fayziyeva va boshqalarning ishlarida o’z ifodasini topgan¹¹.

Ikkinchi guruhga Markaziy Osiyoda, jumladan, O’zbekistonda xotin-qizlarning jamiyatdagi o’rni, ularning ijtimoiylashuvi, davlat va jamiyat boshqaruviga jalb etilishi va boshqa muammolar xorijlik olimlardan Akiner Shirin, Marianna Kemp, Laura Adams¹², MDH va Markaziy Osiyo doirasida N.Nurullo – Xodjayeva, Shakirov S, Toktibayeva K, Suyumbayev E, Asilgojina R va boshqalarning ishlarini keltirib o’tish mumkin. Tadqiqot uchun, shuningdek, xalqaro tashkilotlar tomonidan e’lon qilinayotgan bir turkum nashrlarning ahamiyati katta bo’ldi¹³. Shunday qilib, yuqorida qayd etilgan izlanishlarda tadqiqot obyekti Markaziy Osiyo, O’zbekiston yoki boshqa hududlar misolida o’rganilganligi aniqlandi. Bu esa ushbu dissertatsiya oldiga qo’yilgan maqsad, vazifalarni to’g’ri tanlanganligini ko’rsatadi.

Mustaqillikka erishgach, O’zbekiston Respublikasida ayollarning jamiyatda va oiladagi mavqeyini mustahkamlash borasida katta o’zgarishlar sodir bo’ldi. O’zbekiston birinchilardan bo’lib ayollarning jamiyatdagi rolini yuqori baholab, 1999-yilni “Ayollar yili” deb e’lon qildi. Gender tenglik masalasi davlat siyosati darajasiga ko’tarilib, sohaga oid 25 ta qonunchilik hujjati qabul qilindi. O’zbekiston milliy qonunchiligining asosi xalqaro huquq me’yorlarining ustunligiga tayanib kelindi. Ayniqsa, O’zbekiston BMT tarkibiga kirgach, xotin-qizlarning huquqlarini xalqaro miqyosda tasdiqlovchi hamda davlatlarning ana shu huquqlarni himoya

¹⁰ Hasanova N. O’zbekiston xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlaridagi ishtiroki (1991–2021-yillar Andijon viloyati misolida)”. Tarix fanlari bo’yicha (PhD) avtoreferati. – Andijon, 2024. – B.61.

¹¹ Azimova N., Shermuxeammedova J. Gender va oila. Gender munosabatlari nazariyasi va amaliyotiga kirish. Ilmiy to’plam. – Toshkent, 2007. – B.370. <https://taniqliolimlar.uz/scientist>; “O’zbekistonning taniqli olimlari” ensiklopediyasi 2023-yil to’plami <https://taniqliolimlar.uz/scientist.php?id=76>;

¹² Akiner Shirin. Between tradition and modernity – the dilemma facing contemporary Central Asian Women. In: – Buckley, Mary, (ed.) Post Soviet Women: From the Baltic to Central Asia. Cambridge: – Cambridge University Press, 1997. – Pp.261-304; Marianne Kamp. The New Woman in Uzbekistan: Islam, Modernity and Unveiling under Communism. – University of Washington Press, 2006. – P.319; Women’s Studies and Gender Studies in Central Asia: are we talking to each other?” – Central Eurasian Studies Review, 2009 8(1): – Pp.2-12; Shu muallif: Between Women and the State: Mahalla Committees and Social Welfare in Uzbekistan,” in The Transformation of Central Asia: States and Societies from Soviet Rule to Independence, ed. Pauline Jones Luang, – Ithaca: Cornell University Press, 2004.- Pp. 29-58; Laura L. Adams. The Spectacular State: Culture and National Identity in Uzbekistan. – Durham, N.C.: – Duke University Press, 2010. – P.242; Нурулла-Ходжаева Н. Женщины в трансформирующемся обществе (например исследование п государства Центральной Азии). Автореф дисс. канд. Философ. наук. – Душанбе, 2004. Шакиров С., Токтыбаевы К. Женское измерение прав человека в Казахстане. – Алматы «Цент гендерных исследований», 2001. – С. 214; Суюмбаев Э.А. Гендерные отношения в Кыргызстане – Бишкек, 2002; Асылгожина Р.Е. Вопросы политического лидерства в странах Центральной Азии. – С.361-362. <https://cyberleninka.ru/article/n/voprosy-politicheskogo-liderstva-zhenschin-v-stranah-sentralnoy-azii>

¹³ Конвенция о ликвидации всех форм дискриминации в отношении женщин //Сборник международных договоров ООН. – Тошкент. 1. – Нью-Йорк: Женева. 1994. – С.172; Программа развития ООН. (б.д.). Индекс гендерного неравенства. <http://hdr.undp.org/en/content/gender-inequality-index-gii>; <https://www.eurasian-research.org/publication/gender-assessment-in-central-asia/?lang=ru>; Гендерная оценка в Центральной Азии <https://www.eurasian-research.org/>

qilishga yo‘naltirilgan xatti-harakatlarini belgilab beruvchi ko‘plab xalqaro shartnomalar va konvensiyalarga qo‘shildi¹⁴.

Ayniqsa, O‘zbekistonda gender tenglikni ta‘minlash masalasida davlat siyosati teng huquq va erkinliklar prinsipini amalga oshirishga, O‘zbekiston Konstitutsiyasiga muvofiq¹⁵, ayollar va erkaklar uchun teng imkoniyatlarni yaratishga qaratilgan. Ayollar va erkaklar huquqlari va manfaatlarining tengligi Mehnat, Fuqarolik, Oila, Jinoyat, Fuqarolik-protsessual, Jinoyat-protsessual kodekslar bilan mustahkamlangan. Bugunga kelib O‘zbekistonda xotin-qizlar huquqlarini ta‘minlash va himoya qilishning huquqiy asoslari yanada takomillashtirilib, gender tenglik bo‘yicha huquqiy institutsional tuzilmalarning faoliyati yo‘lga qo‘yilgan. Xususan, Inson huquqlari bo‘yicha Oliy Majlisi Vakili Instituti (Ombudsman) va Inson huquqlari milliy markazidan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tarkibida ayollar huquqlarini ta‘minlash va kamsitishning har qanday shakliga barham berish bo‘yicha milliy qonunchilikda xalqaro standartlarni uyg‘unlashtirish bilan shug‘ullanuvchi yangi Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo‘mitasi tashkil etildi. O‘zbekiston xotin-qizlar qo‘mitasi, O‘zbekiston tadbirkor ayollar uyushmasi “Tadbirkor ayol” va xotin-qizlar “Olima” uyushmasi eng katta NNTlardir. Xotin-qizlar NNT o‘zlarining faoliyatlari bilan davlatning siyosatiga ta‘sir o‘tkazishlari, uning gender yo‘nalishini ijobiy tomonga o‘zgartirishga ko‘maklashmoqda¹⁶.

1991-yilda hukumatning tashabbusi bilan O‘zbekiston xotin-qizlar qo‘mitasi tashkil etilgan bo‘lsa, 1995-yilda 2-martda “O‘zbekiston Respublikasi davlat va jamoat qurilishida xotin-qizlarning rolini oshirish tadbirlari to‘g‘risida”gi va 1999-yildagi “Xotin-qizlarning ijtimoiy muhofazasini kuchaytirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmonlari qabul qilindi, ushbu farmonlar xotin-qizlar maqomini oshirishda va xotin-qizlar harakatiga katta ko‘mak bo‘ldi¹⁷. “O‘zbekiston Respublikasini 2017–2021-yillarda rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar Strategiyasi”da aholini ijtimoiy himoya qilish va sog‘liqni saqlash tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida belgilandi. 2018-yilda Prezident Farmoni bilan Xotin-qizlar qo‘mitasi faoliyatining ustuvor yo‘nalishlari belgilab berilgan bo‘lsa, 2020-yilda Xotin-qizlar qo‘mitasi tugatilib, uning o‘rniga “Mahalla va oilani qo‘llab-

¹⁴ Обзор действующего законодательства Республики Узбекистан. – Тошкент, 1999. – С.10; Женщина, закон и общество. Пособие для женщин. – Тошкент, 1999. – С.15.; O‘zbekiston qator xalqaro hujjatlarga: “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi”ga (1991.30.09), To‘rtinchi Umumjahon xotin-qizlar konferensiyasi deklaratsiyasi va Harakat platformasiga (Pekin, 1995), “Onalikni muhofaza qilish to‘g‘risidagi 103-konvensiyasi”ga (1995.06.05.), “Xotin-qizlarga nisbatan kamsitishning barcha shakllariga barham berish to‘g‘risidagi Konvensiya” (1995.06.05), “Erkaklar va xotin-qizlarning bir xil mehnati uchun bir xil haq to‘lash to‘g‘risidagi konvensiya”ga (1997.30.08.), “Xotin-qizlarning siyosiy huquqlari to‘g‘risida”gi Konvensiya, “Ta‘lim sohasidagi kamsitishlarga qarshi kurash to‘g‘risida”gi Konvensiya (97.30.08), “Xotin-qizlarning siyosiy huquqlari to‘g‘risida”gi Konvensiya (1997.30.08), “Mehnat va ish bilan bandlik sohasidagi kamsitish to‘g‘risida”gi Konvensiya (1997.30.08)ga qo‘shilgan.

¹⁵ O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241 - son).

¹⁶ Ахмедшина Ф. Мустақиллик шароитида Ўзбекистоннинг гендер муаммолари // Gender munosabatlari nazariyasi va amaliyotiga kirish. – Toshkent, 2007. – B.414.

¹⁷ Ахмедшина Ф. Мустақиллик шароитида Ўзбекистоннинг гендер муаммолари. – Б. 410.

quvvatlash vazirligi” tashkil etildi¹⁸. 2019-yilda qabul qilingan “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilinib, ushbu qonunning maqsadi xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta’minlashni tartibga solishdan iborat bo‘lsa, 2019-yilda O‘zbekiston Respublikasining yana bir “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida” Qonuni qabul qilindi¹⁹. Ushbu Qonunning maqsadi xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat belgilandi.

2021-yil mart oyida “Xotin-qizlar jamoatchilik kengashi” tashkil etildi. 2022-yilda “Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi” tugatilib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yilda “Oila va xotin-qizlar davlat qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida” PQ 146-son Qarori qabul qilindi²⁰. Shunday qilib, mustaqillik davrida O‘zbekiston ayollari jamiyatning tom ma’nodagi teng huquqli a’zosiga, jumladan, siyosat subyektiga aylandi. Prezident Sh.Mirziyoyev: “O‘zbekiston tarixida birinchi marta milliy parlamentda ayollar soni Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan belgilangan tavsiyalarga mos darajaga yetdi. Mamlakatimiz parlamenti ayol deputatlar soni bo‘yicha dunyodagi 190 ta milliy parlament o‘rtasida 37-o‘ringa ko‘tarildi. Holbuki, bundan 5 yil avval bu ko‘rsatkich 128-o‘rinda qayd qilingan edi”²¹, deb bejizga ta’kidlamadi.

BMT Taraqqiyot dasturi tomonidan 2019-yilda e’lon qilingan hisobotda gender tenglik ta’minlanganligiga oid ko‘rsatkichlar bo‘yicha MDH davlatlaridan Belarus Respublikasi 27, Qozog‘iston 46, Moldova 50, Rossiya Federatsiyasi 54, O‘zbekiston 64, Tojikiston 84 va Qirg‘iziston 87-o‘rinni egallagan²². O‘zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoyev 2021-yil 22-fevral kuni BMT Inson huquqlari bo‘yicha kengashining 46-sessiyasidagi nutqida “Biz gender siyosati masalalari borasida mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy hayotida va ishbilarmonlik sohasida ayollarning rolini tubdan oshirishga qaratilgan ishlarni qat’iy davom ettiramiz”²³, deb ta’kidladi. Shunga asosan, 2021-yil O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2030-yilga qadar O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasi²⁴ tasdiqlandi.

Dissertatsiyaning **Samarqand viloyati xotin-qizlarining ijtimoiy-iqtisodiy holati**” deb nomlangan ikkinchi bobida Samarqand viloyati xotin-qizlarini ijtimoiy himoyalash, oila mustahkamligini ta’minlash va nikoh munosabatlari ochib berish hamda, xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy muammolari: dinamika, kasb va mehnat bandligi ko‘rsatkichlari tahlil etilgan.

¹⁸ Xalq so‘zi gazetasi 25.12.2023 <https://xs.uz/uz/post/oila-va-xotin-qizlar-qomitasi-yana-ajralib-chiqdi>

¹⁹ O‘zbekiston Respublikasining “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuni. 2019-yil 2-sentabr, O‘RQ-561-son. <https://lex.uz/acts/>

²⁰ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 01.03.2022-yildagi PQ-146-son “Oila va xotin-qizlar davlat qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risi”da Qarori <https://lex.uz/docs/-5884084>

²¹ Prezident tantanali bayram tabrigi, 2020-yil, 7-mart.

²² BMT Taraqqiyot dasturining Gender tengsizlik indeksi <https://yuz.uz/uz/news/ozbekiston-va-markaziy-osiyo>

²³ Prezident Shavkat Mirziyoyevning BMT Inson huquqlari bo‘yicha kengashining 76-sessiyasidagi nutqi. <https://president.uz/uz>.

²⁴ O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 18.07.2021 yildagi “2030-yilga qadar O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish Strategiyasini tasdiqlash haqida”gi Qarori // <https://lex.uz/docs/5466673>

Aholining yarmini tashkil etuvchi xotin-qizlarning ijtimoiy ahvolini yaxshilash va ularni mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotida faol ishtirok etish jarayoniga keng jalb qilish O‘zbekistonda ijtimoiy muammolar orasida alohida ahamiyat kasb etadi. 1993-yilda “Viloyat aholisini ish bilan ta’minlashga ko‘maklashish” jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan Navro‘z bayrami arafasida viloyatimiz tuman va shaharlari bo‘yicha kam ta’minlangan 183 ta ishsizlar oilasiga, 369,875 so‘m moddiy yordam ko‘rsatilgan²⁵. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 24-avgustdagi “Kam ta’minlangan oilalarni ijtimoiy himoya qilish to‘g‘risida”gi 434-sonli²⁶ va 1995-yil 10-dekabrda “Bolali oilalarni ijtimoiy jihatdan qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 437-sonli qarorlarini bajarish yuzasidan²⁷, fuqarolar o‘z-o‘zini boshqaruv barcha organlarida kam ta’minlangan oilalarga moddiy yordam berish maxsus jamg‘armalari tashkil etilgan. Samarqand viloyati hokimligi ma’lumotiga ko‘ra, viloyatda 1998-yilda 57035 ta kam ta’minlangan oilalarga 312,4 million so‘m moddiy yordam ko‘rsatildi. 16 yoshgacha bolalari bo‘lgan oilalarga 1769,8 million so‘m nafaqa to‘langan²⁸. 1995-yilning 9 oyi davomida qariyb 3,5 ming nafar xotin-qizlar ish bilan ta’minlangan, 600 ga yaqin xotin-qizlar esa korxonalar va muassasalar talabiga asosan turli kasblarga o‘qitilib, doimiy ishga joylashtirildi²⁹.

2001-yil O‘zbekiston Respublikasida “Ona va bola” yili deb e’lon qilinishi, Samarqand viloyatida ona sog‘ligini mustahkamlash uchun ona va bolaga e’tibor yanada kuchaydi. O‘zbekiston xotin-qizlar qo‘mitasi 2005-yildan buyon UNISEF bilan “Oilaviy ta’lim” va UNFPA bilan “Reproduktiv salomatlik” loyihalarini amalga oshirib kelmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 13-apreldagi “Ona va bola salomatligini muhofaza qilish, sog‘lom avlodni shakllantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi №PQ-1096-sonli Qarori³⁰ ijrosini ta’minlash maqsadida Samarqand viloyatida bir qancha ishlar amalga oshirildi, homiladorlarga tibbiy yordam ko‘rsatish, ona va bola salomatligini muhofaza qilish tizimini rivojlantirish, sog‘lom bola tug‘ilishi va tarbiyalanishi uchun zarur shart-sharoitlarni ta’minlovchi perinatal va skrining markazlari tashkil etildi, oilada va jamiyatda produktiv salomatlikni mustahkamlash tadbirlari amalga oshirildi³¹. 2017–2018-yillar davomida Samarqand viloyatda sog‘liqni saqlash tizimi tubdan isloh qilindi, sohaga doir 30 dan ortiq me’yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Fertil³² yoshidagi ayollar va o‘smir qizlar o‘rtasida turli kasalliklarni

²⁵ Zarafshon gazetasi 1993-yil 13-aprel N-44 soni.

²⁶ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 24-avgustdagi 434-sonli “Kam ta’minlangan oilalarni ijtimoiy himoya qilish to‘g‘risida”gi Qarori. <https://lex.uz/docs/-804303>

²⁷ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996-yil 10-dekabrda 437-sonli “Bolali oilalarni ijtimoiy jihatdan qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori. <https://lex.uz/uz/docs/-181343>

²⁸ Prezident Administratsiyasi arxivining Samarqand viloyat bo‘limi, 1552-fond, 1-ro‘yxat, 1-5 varaqlar.

²⁹ Prezident Administratsiyasi arxivining Samarqand viloyat bo‘limi, 1552-fond, 1-ro‘yxat, 1-5 varaqlar.

³⁰ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ona va bola salomatligini muhofaza qilish, sog‘lom avlodni shakllantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-1096-son qarori. <https://lex.uz/docs/-1470958>

³¹ Samarqand viloyati hokimligi umumiy bo‘limi. “Samarqand viloyati hokimi tomonidan qabul qilingan qarorlar” №53-Q-№66-Q.

³² Fertil yoshi (reproduktiv yosh, generativ yosh) (ingl. fertile/reproductive age) – ayolning tug‘ish qobiliyatiga ega bo‘lgan yoshi. <https://demografiya.uz/wiki/fertil-yoshi/>

erta aniqlash va oldini olish maqsadlarida 168 ta Ayollar maslahat xonalari tashkil etildi³³. “Ayollar maslahat markazi”ga Oqdaryo tumanidan 2016-yilda 167 nafar, Paxtachi tumanidan 41 ta, Kattaqo‘rg‘on tumanidan 36 ta va Samarqand shahridan 99 ta xotin-qizlar murojaat qilishgan. Huquqiy, psixologik, ijtimoiy, iqtisodiy, kasb-hunar, uy-joy masalalari va oila va farzandiga oid masalalar bo‘yicha yordamlar ko‘rsatilgan³⁴.

2013–2018-yillarda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularning barcha sohada teng huquqli mehnat qilishining huquqiy asoslarini yaratish chora-tadbirlari yangi bosqichga ko‘tarildi. Tahlillarga ko‘ra, Samarqand viloyatida xotin-qizlar qo‘mitasi tomonidan 2013-yilda 102 ta, 2014-yilda 132 ta, 2015-yilda 168 ta, 2016-yilda 202 ta, 2017-yilda 228 ta, 2018-yilning shu davrigacha 183 ta kam ta‘minlangan, og‘ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan oilalarga homiylik asosida moddiy yordamlar ko‘rsatilgan³⁵. 2022-yildan ijtimoiy ahvoli va turmush sharoiti og‘ir, ishsiz va ijtimoiy faol bo‘lmagan xotin-qizlar bilan “Ayollar daftari”ni yuritish orqali ishlash tizimini yanada takomillashtirish yo‘lga qo‘yildi. Shu yilda mazkur daftarga kiritilgan xotin-qizlar bilan olib borilgan ishlar uchun umumiy hisobda 93,9 mlrd. so‘m sarflanib, shundan “Ayollar daftari” jamg‘armasi hisobidan 61,2 mlrd. so‘m va bank krediti hisobidan 32,7 mlrd. so‘m mablag‘ ajratilgan³⁶. Viloyat, shaharlar, tumanlar xotin-qizlar qo‘mitalari “Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqqa xizmat qilishi kerak” degan tamoyil asosida 2018-yilning o‘zida 720 mingtadan ortiq xonadonlarga kirib, oilalardagi, mahallalardagi ijtimoiy-ma‘naviy muhitni o‘rgandi. Jamoatchilik nazorati guruhlari Qo‘shrabot, Paxtachi, Bulung‘ur tumanlarida bo‘lganida jami 58 mingdan ortiq murojaatlar kelib tushdi. Murojaatlarning 32 mingtasi tumanlar, 26 mingtasi esa viloyat tashkilotlari ko‘magida hal etildi, qolganlariga yetarlicha kerakli tavsiyalar berilgan³⁷. Viloyat kesimida o‘rganish natijalariga ko‘ra, eng og‘ir ijtimoiy sharoitida yashayotgan 120 nafar xotin-qizlarning ro‘yxati Xotin-qizlar qo‘mitasiga uy-joy bilan ta‘minlash maqsadida taqdim etildi.³⁸

Mamlakatimiz bo‘ylab “Jinoyatchilikdan holi hudud” loyihalari amalga oshirilishi munosabati bilan viloyatdagi xotin-qizlar qo‘mita bo‘limlari ham faol qatnashib kelmoqda. Joylarda MFY, diniy maslahatchilar va xotin-qizlar qo‘mitalari bilan hamkorlikda olib borilgan tarbiya-tushuntirish va boshqa profilaktik ishlar olib borilishiga qaramasdan, ayollar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar 4,9 foizga ortgan. Xususan, 2000-yilda xotin-qizlar tomonidan 148 ta jinoyat sodir etilgan bo‘lib, Tayloq, Samarqand, Nurobod va Jomboy singari tumanlarda bunday hollar 1,5-2 barobarga ko‘paygan. 1999–2000-yillarda esa xotin-qizlarning o‘z joniga suiqasd qilishi 295 tani tashkil qilgan³⁹. Ayollar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar bo‘yicha

³³ Prezident Administratsiyasi arxivining Samarqand viloyat bo‘limi, 1552-fond, 1-ro‘yxat, 26-varaq.

³⁴ Prezident Administratsiyasi arxivining Samarqand viloyat bo‘limi, 1552-fond, 1-ro‘yxat, 89-varaq.

³⁵ Samarqand viloyati Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi joriy arxivi, 2013-2018-yillar ma‘lumotlari.

³⁶ Samarqand viloyati Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi joriy arxivi, 2022-yil ma‘lumotlari.

³⁷ Prezident Administratsiyasi arxivining Samarqand viloyat bo‘limi, 1552-fond, 1-ro‘yxat, 24-varaq.

³⁸ Prezident Administratsiyasi arxivining Samarqand viloyat bo‘limi, 1552-fond, 1-ro‘yxat, 26-varaq.

³⁹ Zarafshon gazetasi. 2000-yil 13-may, N-37 son.

Samarqand va Kattaqo'rg'on shaharlari, Bulung'ur, Jomboy, Nurobod, Tayloq va Qo'shrabot tumanlarida o'sish bo'lgan. 2011-yilga kelib, bu holat 2010-yilga nisbatan 131 taga kamayganligi e'tiborga olinsa⁴⁰, bu sohada olib borilgan profilaktik ishlar o'z natijasini bergan.

Xotin-qizlar ijtimoiy muammolarini hal qilishda amalga oshirilgan ishlarning yana biri o'z joniga qasd va suiqasd qilishning oldini olish bo'yicha mutasaddi guruhlarining tadbirlari e'tiborga molikdir. Misol uchun, respublika hududi bo'yicha tahlil etilganda, 2011-yilning 8 oyida 2010-yilning shu davriga nisbatan xotin-qizlarning o'z joniga qasd va suiqasd qilish holatlari Buxoro viloyatida 22 taga, Jizzax viloyatida 10 taga, Navoiy viloyatida 22 taga, Namangan viloyatida 20 taga, Samarqand viloyatida 3 taga, Surxondaryo viloyatida 14 taga, Toshkent viloyatida 1 taga, Farg'ona viloyatida 30 taga va Qashqadaryo viloyatida 20 taga ko'paygan⁴¹. Viloyatda 2021-yilga nisbatan 2022-yilda xotin-qizlar jinoyati 13 % ga kamaygan. O'z joniga qasd va suiqasd holatlari o'tgan yilga nisbatan 62 taga kamaygan. Bu ishlarda oila va xotin-qizlar boshqarmasi xodimlari, mahalla xotin-qiz faollarining xizmati katta bo'ldi⁴².

2017-yilda FHDYo organlari tomonidan qayd etilgan 306 mingta nikohlar soni 2016-yilga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Surxondaryo (126,6 %), Jizzax va Namangan (115,9 %), Samarqand (112,3 %) hamda Qashqadaryo (111,2 %) viloyatiga to'g'ri keladi⁴³. Samarqand viloyatida 2017–2018-yillarda erta yoshda farzand ko'rish va erta nikohlarni oldini olish borasida sezilarli ishlar amalga oshirilganligi natijasida 15-16 yoshda farzand ko'rganlar soni o'tgan yillarga nisbatan 3 nafarga (2017-yilda 11 nafar, 2018-yilda 8 nafar) kamaygan. 17 yoshda farzand ko'rganlar soni 4 nafarga (2017-yilda 19 nafar, 2018-yilda 15 nafar) kamaygan⁴⁴. 2017-yilda 31 mingdan ziyod ajrashish holati qayd etilgan bo'lib, buning oqibatida, asosan, ayollar va bolalar jabr ko'rgan, ayollar o'rtasida jinoyatchilik kuchaygan⁴⁵.

Viloyatda bu kabi muammolarni oldini olish uchun hukumat qarori asosida manzilli ijtimoiy himoya tadbirlari amalga oshirildi. Xususan, 1126 ta mahalla faollari tomonidan erta turmush va erta tug'ruq holatlari, oilaviy ajralishlarning oldini olish, oilalarda sog'lom turmush tarzi targ'iboti bo'yicha 16300 ta targ'ibot tadbirlari o'tkazilgan⁴⁶. 2018–2019-yillar hisobotiga ko'ra⁴⁷, viloyat bo'yicha nikohdan ajralishlar soni bo'yicha 1-o'rinda Samarqand shahri, so'ng Samarqand, Ishtixon, Paxtachi va Kattaqo'rg'on tumanlari turgan. Bu holat 2011-yil bilan solishtirilganda, Samarqand shahri, Samarqand, Urgut, Kattaqo'rg'on, Nurobod,

⁴⁰ O'z MA. M-170, 1-ro'yxat, 124-yig'ma jild, 1-varaq.

⁴¹ O'z MA. M-170, 1-ro'yxat, 128-yig'ma jild, 2-varaq.

⁴² Prezident Administratsiyasi arxivining Samarqand viloyat bo'limi, 1552-fond, 1-ro'yxat, 25-varaq.

⁴³ Kadirov M.A. Demografiya. – Samarqand, 2018. – B.195.

⁴⁴ Prezident Administratsiyasi arxivining Samarqand viloyat bo'limi, 1552-fond, 1-ro'yxat.

⁴⁵ Toliboyeva N. O'zbekiston xotin-qizlarining ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishdagi faoliyati (1992-2019 y.y) Tarix fanlari PhD avtoreferati. – Toshkent, 2020 – B.21.

⁴⁶ Prezident Administratsiyasi arxivining Samarqand viloyat bo'limi, 1552-fond, 1-ro'yxat, 32-varaq.

⁴⁷ O'z MA. M-170 fond, 1-ro'yxat, 128-yig'ma jild, 902-varaq.

Payariq, Toyloq, Ishtixon, Paxtachi tumanlarida⁴⁸ oshganligini ko'rish mumkin. Shu davr mobaynida, mahalla va oilalarda ajrimlar, ishsizlik, ijtimoiy himoyaga muhtoj xotin-qizlar, kam ta'minlangan oilalar, uyushmagan va tarbiyasi og'ir yoshlar hamda mahalla tizimiga aholi murojaatlarining oshishiga sabab bo'layotgan omil va shart-sharoitlar aniqlangan.

Xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy muammolari: dinamika, kasb va mehnat bandligi ko'rsatkichlariga bag'ishlangan qismga to'xtaladigan bo'lsak, statistika qo'mitasi ma'lumotiga ko'ra, 1991-yilda respublikada doimiy yashovchi aholining 50,6 foizini ayollar tashkil etgan. Bu ko'rsatkich 2022-yilning 1-yanvarida 49,7 foizga teng bo'ldi⁴⁹. O'rganilayotgan davrda, viloyatdagi demografik vaziyat o'ziga xos bo'lib, u respublikaning boshqa viloyatlari orasida aholisining tabiiy o'sishi jihatdan yetakchi o'rinda turdi. Jumladan, aholining tabiiy o'sishi 1994-yilda 29 % ni, 2015-yilda esa, 20,3 % ni tashkil etdi. Viloyatda 2016-yilda, 3583,9 ming kishidan 1786,6 ming kishi ayollar, 1797,3 ming kishi erkaklar tashkil etgan⁵⁰. Hozirda viloyat ma'muriy-hududiy jihatdan Samarqand va Kattaqo'rg'on shaharlari hamda 14 ta tumanga: Oqdaryo, Bulung'ur, Jomboy, Ishtixon, Kattaqo'rg'on, Qo'shrabot, Narpay, Payariq, Pastdarg'om, Paxtachi, Samarqand, Nurobod, Urgut, Toyloq kabilarga bo'linadi⁵¹ va viloyatda jami 1126 ta mahalla mavjud.

Demografik jarayonlar mamlakatda murakkab ko'rinishga ega bo'lib, tug'ilishning ayniqsa nisbatan yuqoriligi va unga mos ravishda aholi tabiiy o'sishi sur'ati oshmoqda. 2021-yilda har bir ayolga o'rtacha 3,1 nafar bola to'g'ri kelgan bo'lsa, 1991-yilda bu ko'rsatkich 4,2 ga teng edi. Tug'ilishlar shahar hududlarida bir ayolga 2,9 dan, qishloq hududlarida esa 3,4 tadan to'g'ri kelgan⁵². Bundan O'zbekistonning qishloq hududlarida tug'ilish shaharga nisbatan yuqori degan xulosa qilish mumkin. Shu davrda mehnat bozorida ayollar faolligining past darajasini keltirib chiqargan asosiy sabablar bo'lib, ularning oilaviy yumushlar va farzandlar tarbiyasi bilan mashg'ulligi, uy-ro'zg'orda ish haqi to'lanmaydigan uy bekasi sifatidagi vazifalarining ko'pligi bilan ham ifodalanadi. Mehnat bozorida gender tendensiyalari haliga qadar mavjud bo'lib, ayollar ijtimoiy sohalarda (ta'lim, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar, mehmonxona xizmatlari va umumiy ovqatlanish) kam maosh bilan faoliyat yuritmoqda⁵³.

Viloyat Bandlik boshqarmasi ma'lumotiga ko'ra, 2022-yil boshida viloyatda 4 milliondan ortiq aholi istiqomat qilib, ularning 153 mingga yaqini ishsiz hisoblangan. Shundan 2 milliondan ortiq xotin-qizlar bo'lib, ularning 53,8 foizi mehnatga layoqatli, 727 ming nafari rasman ishlamagan, atigi 9,8 foizi ishlagan, 0,07 foizi ishsizlik nafaqasini olgan. Ishsizlik darajasi 9,3 foizni tashkil etgan⁵⁴. Taqqoslash uchun aytish mumkinki, 2021-yilda respublikada ayollar o'rtasidagi

⁴⁸ O'z MA. M-170, 1-ro'yaxat, 128-yig'ma jild, 902-varaq.

⁴⁹ O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasi ma'lumotlari, 1991-yil. <https://stat.uz/uz/>

⁵⁰ Kadirov M.A. Demografiya. – Samarqand, 2018. – B.180.

⁵¹ Samarqand viloyatining ma'muriy-hududiy bo'linishi. <https://samstat.uz/uz/>.

⁵² O'zbekiston Respublikasi Oila va Mehnat kodekslarining gender ekspertizasi. – Toshkent, 2008. – B.45-50;

⁵³ Узбекистан обновленная гендерная оценка по стране. Азиатский банк развития, 2018. С.XIV.

⁵⁴ Baltayeva Z. Samarqand viloyatida bandlik muammolari haqida <https://nuqtainazar.uz/archives/9137>

ishsizlik darajasi 13,3 foizni tashkil etgan. Bu erkaklar o'rtasidagi ishsizlik darajasidan ikki baravar yuqori. Xotin-qizlar o'rtasida ishsizlikning eng yuqori ko'rsatkichi Qashqadaryo (15,5 foiz), Surxondaryo (15,0 foiz) va Sirdaryo (4,7 %) viloyatlarida kuzatilgan⁵⁵.

Samarqand viloyati shaharlari va tumanlari aholisi orasida mehnat resurslarining bandlik darajasi har xil bo'lib, viloyatda mehnatga yaroqli 70 % ni, Samarqand shahrida 79 % va Kattaqo'rg'on shahrida 75 % mehnat bilan band aholi hisoblanadi⁵⁶. Mahallalar kesimida ishsizlar soni 155020 nafar bo'lib, nisbatan eng ko'p Samarqand shahri (23576), Urgut (18700), Pastdarg'om (13615) va Samarqand tumanida (10560) qayd etilgan. Ishsizlarning 91674 nafarini xotin-qizlar va 83246 nafarini yoshlar tashkil etgan⁵⁷. Bandlik boshqarmasi tomonidan 2021-yilda shahar va qishloqlarda mehnatga bo'lgan talab va ehtiyojdan kelib chiqib, rejalashtirilgan 13700 ta ishsiz xotin-qizlardan, amalda 15608 ta ishsiz xotin-qizlar kasb-hunarga o'qitildi. Xotin-qizlar tadbirkorlik markazlarida kasb-hunarga tayyorlash bo'yicha qisqa o'quv kurslarida 2021-yilda 7357 ta ishsiz xotin-qizlar, 2022-yilda esa 8351 ta ishsiz xotin-qizlar kasb-hunarga o'qitildi⁵⁸.

Shuni ta'kidlash lozimki, ayollar va yosh qizlarni tadbirkorlikka keng jalb qilish, oilaviy tadbirkorlik va kasanachilikni rivojlantirish maqsadida 2014–2016-yillarda tijorat banklari tomonidan jami 3,8 trillion so'm kredit mablag'lari ajratildi. 2017–2018-yillarga kelib mazkur kreditlar ko'rsatkichi 6,1 trln. so'mga yetdi. Xotin-qizlarni tadbirkorlikka keng jalb etish, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish maqsadida kreditlar ajratish oxirgi ikki yilda 2 barobarga oshirildi⁵⁹. Samarqand viloyatida ham mamlakat iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida xotin-qizlar faolligini oshirishga qaratilgan kompleks Davlat dasturi asosida tadbirlar rejasi va uni amalga oshirish yo'l xaritalari ishlab chiqilgan. Mazkur dasturning amalga oshirilishi 2022-yilda viloyatda 94353 nafar ishsiz xotin-qizni ish bilan ta'minlash imkonini berdi. Shunga qaramasdan, viloyatda xotin-qizlarining ma'lum qismida iqtisodiy faollik pastligi, avvalo, ularning uy-ro'zg'or ishlari va bola parvarishi bilan to'liq band ekanligi bilan bog'liqdir.

Dissertatsiyaning **“Samarqand viloyati xotin-qizlarining jamiyat va ilm-fan sohalaridagi ishtiroki”** deb nomlangan uchinchi bobida Samarqand viloyatida ayollarning davlat va jamiyat sohalaridagi o'rni hamda Samarqand viloyati xotin-qizlarning ilm-fan, ta'lim va innovatsiyalarga qo'shgan hissasi masalalari yoritilgan. Hozirgi kunda mamlakatimiz aholisining qariyb 50 foizini tashkil etadigan ayollar ijtimoiy-ma'naviy, siyosiy-iqtisodiy hayotning barcha sohalarida xususan, davlat boshqaruvi va vakillik organlarida, ishlab chiqarish, tadbirkorlik, sog'liqni saqlash, ta'lim, ma'rifat, madaniyat va boshqa ijtimoiy sohalarda samarali mehnat qilmoqda.

⁵⁵ Prognozlashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar instituti (PMTI) ma'lumoti. <https://www.gazeta.uz/oz/2022/11/25/>

⁵⁶ Kadirov M.A. Demografiya. – Samarqand, 2018. – B.215.

⁵⁷ Prezident Administratsiyasi arxivining Samarqand viloyat bo'limi, 1552-fond, 1-ro'yxat, 2020-2021 yillar qiyosiy ma'lumotlar.

⁵⁸ Samarqand viloyati “Xotin-qizlar tadbirkorlik markazi” joriy arxivi, 2019-2022 yillar ma'lumotlari.

⁵⁹ Norboyeva.T “Xotin-qizlar ishsizligi yuqoriligicha qolmoqda” 22.12.2018 yil <https://www.gazeta.uz/oz/2018/12/22/ayollar-ishsizligi/>

Davlat organlari va tashkilotlari rahbarlarining kamida bir nafar o‘rinbosarini xotin-qizlar orasidan tayinlash tizimi joriy etildi. Natijada rahbar ayollar soni 2017-yilda 27 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2023-yilga kelib 33 foizga yetdi. Ayollarning ulushi tadbirkorlik sohasida 37 foiz, siyosiy partiyalarda 47 foiz, iqtisodiyot va sanoat tarmoqlarida 46 foiz, tibbiyotda 77 foizni tashkil etmoqda⁶⁰. Qiyoslab aytish lozimki, xotin-qizlarning davlat boshqaruvidagi ulushi 2017-yildagi 27 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2024-yilga kelib 35 foizga yetdi⁶¹.

Hozirgi vaqtda mamlakatimizda turli soha va tarmoqlarda mehnat qilayotgan ishchi va xizmatchilarning 45 foizini xotin-qizlar tashkil etadi. Jumladan, davlat va jamoat tashkilotlari tizimida 1 ming 400 dan ortiq xotin-qiz rahbarlik lavozimlarida mehnat qilmoqda. Ulardan 17 nafari senator, 16 nafari Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati bo‘lib, 1 ming 75 nafari esa xalq deputatlari mahalliy kengashlari tarkibida faoliyat yuritmoqda. Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlarning 33 foizi, Senat a‘zolarining 24 foizi, Qoraqolpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari deputatlarning 25 foizi ayollardan iborat. Vazir va vazirga tenglashtirilgan lavozimlarda xotin-qizlar ulushi 2018-yilda 2,9 foizini tashkil etgan bo‘lsa, 2023-yilda qariyb ikki barobarga oshdi va 5,7 foizga yetdi. Kattaqo‘rg‘on shahar, Olot, Bo‘ston, Boyovut va Yakkasaroy tumanlari ayol hokimlar boshqarmoqda. Sud tizimida faoliyat ko‘rsatayotgan 181 ayol sudyaning 26 nafari rahbarlik lavozimida mehnat qilib kelmoqda⁶². Ayollarning davlat jamiyat qurilishida ishtiroki bilan bog‘liq tahlillarni viloyatning har bir shahar va tumanlari kesimida ko‘rib chiqilganda, 1999-yil 46 nafar ayol fuqarolar yig‘ini va mahalla qo‘mitasi raisligiga, 474 nafar xotin-qiz kotibalikka 1900 nafar ayol maslahatchilikka saylangan, ayollar orasida 3 nafari Oliy Majlis, 6 nafar xalq deputatlari viloyat kengashi, 43 nafari tuman kengashi deputati sifatida faoliyat ko‘rsatadi. Xotin-qizlarimiz viloyatimiz sanoatidagi ishchi xizmatchilarning 50 foizini, xalq ta‘lim va sog‘liqni saqlash tizimlari xodimlarining 90 foizidan ortiqrog‘ini tashkil etdi⁶³.

Yuqorida qayd etilgandek, Samarqand viloyatida 4 millondan ortiq aholi yashaydi, shuning teng yarimi ayollardir. O‘tgan yillarga nisbatan viloyat boshqaruv lavozimidagi xotin-qizlar ulushi 30 foizga, siyosiy partiyalarda 27 foizga, oliy ta‘limda 16 foizga, tadbirkorlikda 35 foizga oshdi⁶⁴. Xotin-qizlarning huquq va erkinliklarini ta‘minlash va ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishda fuqarolik jamiyati institutlarining ham roli katta. O‘zbekistonda faoliyat olib borayotgan barcha siyosiy partiyalarda “Ayollar qanoti” mavjud bo‘lib, ushbu yo‘nalishda asosan ayollarning siyosiy hayotda faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha muhim vazifalar belgilangan⁶⁵.

⁶⁰ Abdulkarimova M. Davlat fuqarolik xizmatida xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish – muhim vazifa. <https://uza.uz/oz/posts/davlat-fuqarolik-xizmatida-xotin-qizlarning-ijtimoiy-siyosiy-faolligini-oshirish-muhim>

⁶¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning Xalqaro xotin-qizlar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. 07.03.2024-yil.

⁶² Rustamova M.M. Samarqand viloyati xotin-qizlarining jamiyat va ilm-fan sohalaridagi ishtiroki. Buxoro davlat universiteti ilmiy axboroti. 2024, №8, avgust. – Buxoro. – B. 176-177.

⁶³ Zarafshon gazetasi. 2000-yil 8-mart, N-30 son.

⁶⁴ Samarqand viloyati hokimligining 2022-yilgi hisoboti ma‘lumotlari.

⁶⁵ O‘z MA, M-170-fond, 1-ro‘yxat, 157- ish, 57-varaq.

Ta'kidlash joizki, viloyat xotin-qizlari xalq deputatlari viloyat, shahar va tumanlar Kengashlarining safida samarali deputatlik faoliyatini olib bormoqda. Misol uchun, xalq deputatlari Samarqand viloyati Kengashining 60 nafar deputatlaridan 21 nafarini ayollar tashkil etadi. Samarqand viloyatining hududiy va mahalliy kengashlarga saylangan deputatlar orasida: G.Alimova, I.Boboqulova, M.Vaxabova, G.Qo'chqorova, S.Mirsaidova, S.Najmiddinova, N.Rabbimova, D.Ulug'boyeva, T.Xoliqovalar⁶⁶ ham bor.

Ayollarning sohalardagi ulushi ham ortdi. Ular tibbiyot tizimida 77 foizdan ko'proqni, ta'lim sohasida salkam 74 foiz, savdoda 49 foiz, iqtisodiyot tarmoqlari, sanoat va ishlab chiqarishda qariyb 46 foiz, madaniyat va sportda 45 foiz, qishloq xo'jaligida 42 foizdan ziyodni, moliya va sug'urta faoliyatida 37 foizdan ortiqni, axborot va aloqa xizmatida 35 foiz, professional, ilmiy va texnik faoliyatda qariyb 34 foizni, davlat boshqaruvi va mudofaa tizimida 27 foizdan ko'proqni tashkil etmoqda⁶⁷. Prognozlashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar instituti (PMTI) ekspertlari tahliliga ko'ra, o'zbek ayollarining so'nggi 5 yil ichida martabaga erishishi, mehnat bozorida ishtiroki yo'lidagi ko'plab to'siqlar sezilarli darajada kamaygan. Bu jarayonda hukumatning jamiyat va iqtisodiyotda gender tengligiga erishish bo'yicha qabul qilingan qarorlari asosiy omil bo'lmoqda.

Samarqand viloyati xotin-qizlarning ilm-fan, ta'lim va innovatsiyalarga qo'shgan hissasiga to'xtaladigan bo'lsak, YUNESKO ma'lumotiga ko'ra, dunyoda jami tadqiqotchilarning 33,3 foizini xotin-qizlar tashkil etarkan. O'tgan davrda jahon hamjamiyati xotin-qizlarni ilm-fanga jalb etish borasida sezilarli yutuqlarga erishdi. BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan "Taraqqiyot maqsadlari yo'lida fan, texnika va innovatsiyalar to'g'risida"gi rezolyutsiyada "11-fevral – Ilm-fanda xotin-qizlar ishtiroki xalqaro kuni", deb e'lon qilindi.

Mustaqillikning dastlabki yillarida 1733 ta doktorlik dissertatsiyasidan 320 tasini ayollar (18,5 %), 8459 ta fan nomzodligidan 3081 tasini (36,4 %) ayollar himoya qilishga erishgan bo'lsa, 2005–2008-yillar oralig'ida 110 nafar ayol doktorlik dissertatsiyasi, 888 nafari nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilishgan. Bulardan 37,3 foizi tibbiyot, 11,8 foizi pedagogika, 10 foizi filologiya yo'nalishiga oid doktorlik, 35,5 foizi tibbiyot, 13,3 foizi pedagogika, 11,4 foizi filologiya, 7 foizi iqtisodiyot, 4,2 foizi texnika yo'nalishiga oid nomzodlik dissertatsiyalarini yoqladilar. 2010-yilda esa 109 ta fan doktoridan 26 tasi, 648 ta fan nomzodligidan 260 tasi ayollar ekanligi ilm-fan yutuqlarini xalq xo'jaligining turli tarmoqlariga joriy etishda xotin-qizlarning o'z o'rni borligidan dalolat beradi⁶⁸. 2000-yilda Samarqand viloyatda 1200 nafar xotin-qiz turli o'quv yurtlarida, ilmiy tadqiqot institutlarida izlanishlar olib borgan, xotin-qizlardan 12 nafar fan doktori, 310 nafari esa fan nomzodi bo'lgan⁶⁹.

⁶⁶ Samarqand viloyati deputatlik guruhi rahbarlari <https://adolat.uz/uploads/files>

⁶⁷ Oila va xotin-qizlar qo'mitasi tomonidan "Yil ayoli" hamda "Gender tenglik faoli" milliy tanlovlarining Respublika bosqichi g'oliblarini taqdirlash marosimi. Axborot xizmati <https://wcu.uz/oz/lists/view/618>

⁶⁸ Shamsiyeva M. O'zbekistonda xotin-qizlarni ijtimoiy himoya qilishda davlat va nodavlat notijorat tashkilotlarning o'rni (1991-2010 yy). Tarix fanlari PhD Avtoreferati. – Toshkent, 2020. – B.19.

⁶⁹ Zarafshon gazetasi. 2000-yil 8-mart, N-30 son.

2017–2021-yillarga mo'ljallangan "Harakatlar strategiyasi" hamda keyingi davrda "Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida"gi Qonun qabul qilingach, oliy ta'limdan keyingi ta'lim tizimini takomillashtirishga qaratilgan huquqiy-tashkiliy choralar ko'rildi. 2017-yilda ilm-ma'rifat sohasida xotin-qizlari orasida 514 nafar fan doktori, 6 nafar akademik, 15 nafar O'zbekiston Qahramoni, shuningdek, mahalliy Kengashlar deputatlarining 23 foizidan ziyodi hamda ilm-fan, ta'lim-tarbiya, sog'liqni saqlash, madaniyat va san'at sohalarida mehnat qilayotganlarning 72 foizini aynan ayollar tashkil etdi⁷⁰. Bugunga kelib Fanlar akademiyasi tizimida ishlayotgan 4 ming 760 nafar xizmatchining 40 foizini, ya'ni 1 ming 905 nafarini xotin-qizlar tashkil etmoqda. Yurtimizda ilmiy izlanishlar bilan mashg'ul 2 ming 146 nafar tadqiqotchidan 695 nafari ham ayollardir. Hozirgi vaqtda O'zbekiston xotin-qizlarining 7 nafari – akademik, 271 nafari – fan doktori (DSc), 1 ming 411 nafari falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasi sohibalari hisoblanadi⁷¹. 2024-yil bilan taqqoslaganda, hozirgi kunda ilm-fan sohasida jami 5 mingga yaqin olima ayollarimiz faoliyat ko'rsatmoqda. Oliygozlarda esa 14 mingdan ziyod opa-singillarimiz pedagogika va ilmiy tadqiqot yo'nalishida ish olib bormoqda⁷².

O'zbek olimlari kimyo, biotexnologiya, qishloq xo'jaligi kabi sohalarda ayniqsa faol izlanmoqdalar. Ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy va gumanitar sohalar rivojida xotin-qizlarimizning ishtiroki salmoqli o'rin tutadi. Respublikada 220 dan ortiq oliy o'quv yurti bo'lsa, viloyatda 15 ga yaqin oliy o'quv yurtlari va uning filiallari faoliyat yuritmoqda. So'nggi yillarda samarqandlik olimlarning fan va innovatsiyalar sohasida erishgan yutuqlari to'g'risida gapirganda, O.Pardayeva, I.Boymuradova (TDIU SF); N.Avanesova (SamDU); X.Bekmuradova (SamVMI); M.Salaxitdinova (SamDU); D.Aslanova (SamISI); M.Alimova (SamISI); R.Amriddinova (SamISI); O.Qilichova va boshqalarni nomlarini keltirib o'tish lozim⁷³.

2018-yilda Vazirlar Mahkamasining Qarori bilan "Mo'tabar ayol" ko'krak nishoni ta'xis etildi. Respublikada bugungi kunga qadar 855 nafar ayollar "Mo'tabar ayol" ko'krak nishoni bilan taqdirlangan bo'lsa, ulardan 54 nafari Samarqand viloyati ayollaridir⁷⁴. 2021-yilda viloyatdan davlat mukofoti bilan taqdirlangan tashabbuskor davlat va jamoat tashkilotlari rahbar-xodimlaridan 17 nafarini xotin-qizlar tashkil qiladi. Viloyatda quyidagi xotin-qizlar Zulfiya nomidagi Davlat mukofotini: R.Tojiyeva (2000); G.Asqarova (2001); M.Ulashova (2002); Z.Ashurova (2003); N.Haydarova (2004); G.Berdimuratova (2005); Sh.Achilova

⁷⁰ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Xalqaro xotin-qizlar bayramiga bag'ishlangan uchrashuvdagi nutqi. 06.03.2017. <https://president.uz/oz/lists/view/291>; Mahkamova M. Gender tenglik-imkoniyatlar tengligi. // Xalq so'zi, 2022-yil 7-aprel. №72(8134). – B.3.

⁷¹ Saidov A. Ilm-fan sohasida xotin-qizlarning o'rni va ahamiyati: ma'naviyat, tinchlik va bunyodkorlik tushunchalari talqinida // <http://nhrc.uz/uz/articles/ilm-fan-soasida>

⁷² Yangi O'zbekistonda butun xalqimiz qatori xotin-qizlarimiz uchun ham munosib sharoitlarni yaratib berish – eng muhim vazifamiz bo'lib qoladi // O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning Xalqaro xotin-qizlar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. 07.03.2024-yil.

⁷³ Samarqand davlat universitetining 2019-yilda amalga oshirilgan ishlar bo'yicha yillik hisoboti; "Olima" uyushmasi Samarqand viloyat bo'limi ma'lumotlari.

⁷⁴ Rustamova M. O'zbekistonda ilm-fanning rivojlanishida Samarqand viloyati xotin-qizlarining o'rni // "Fan, ta'lim va amaliyot integratsiyasi" ilmiy-metodik jurnali. <http://bilig.academiascience.org> 2023. – B.5.

(2006), N.Abdurahimova (2007); R.Amonova (2008); D.Salimova (2009); M.Sanaqulova (2010); U.Jo‘rayeva (2011); M.Ahmadova (2012); K.Suyarova (2013); D.Olimova (2014); R.Irgasheva (2015); D.Keldiyorova (2016); D.O‘roqova (2017); M.Samatboyeva (2018); R.Yaxshiliqova; H.Rasulova; M.Qanoatova (2019); K.Musulmonova; N.Usmanova (2020); F.Xayrullayeva; M.Shomurodova (2021); X.Orziqulova, M.Xalilova (2022); F.Xudoyorova; B.Ergashova (2023) hamda V.Savadyan va N.Yunusovalar (2024)⁷⁵ oldilar.

Bugungi kunda respublika oliy ta‘lim muassasalarida tahsil olayotgan xotin-qizlarning soni jami talabalar soniga nisbatan qariyb, 49 foizni tashkil etmoqda. Taqqoslash uchun 2017-yilda ushbu ko‘rsatkich 37 foiz edi. Magistratura bosqichida o‘qishini davom ettirgan talaba-qizlar soni jami talabalar soniga nisbatan 51% foizga yetgan⁷⁶. Shu davrda davlat rahbarining tashabbusi bilan ijtimoiy himoyaga muhtoj qizlarning bilim olish imkoniyatlari yanada kengaytirilib, oliy ta‘lim muassasalariga 4 foizli davlat grantlari ajratildi. Mazkur yangi tizim asosida 2020-yilda 950 nafar ijtimoiy himoyaga muhtoj qiz o‘qishga qabul qilindi⁷⁷. Samarqand viloyati oliy o‘quv yurtlarida bugungi kunda 498 nafar iqtidorli talaba qizlar tahsil oladi. Shulardan 4 nafari Prezident stipendianti, 21 nafari nomdor davlat stipendiantlari, 4 nafari viloyat hokimi stipendiantlaridir, 41 nafar iqtidorli magistrant xotin-qizlar, 111 nafar doktorant xotin-qizlarimiz o‘qish va ilmiy ish qilish bilan shug‘ullanmoqda⁷⁸. 2017–2021-yillarda Samarqand viloyati oliy o‘quv yurtlari ilmiy salohiyatida ayol professor-o‘qituvchilarning ulushi tahlil qilinganda, Samarqand davlat tibbiyot universiteti (34 %), Samarqand davlat iqtisodiyot va servis instituti (33,3 %), Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti (19,8 %) va Samarqand davlat universiteti (18,6 %) yetakchi o‘rinda turganligini ko‘rish mumkin. Qiyosiy aytish mumkin, 2020–2021-yillarda PhD bo‘yicha jami SamDU 30 dan ortiq, SamDCHT institutida 10 dan ortiq va SamDTU 30 nafar olimlar himoya qilgan. Andijon viloyati misolida gapirganda, 2018–2020-yillar davomida viloyatda faoliyat yuritayotgan olimlar tomonidan 6 nafar fan doktori (DSc), 14 nafar falsafa doktori (PhD) bo‘yicha dissertatsiyalar himoya qilingan⁷⁹.

XULOSA

1991–2022-yillarda O‘zbekiston xotin-qizlarining ijtimoiy-iqtisodiy muammolari va yechimlarini Samarqand viloyati misolida o‘rganish natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. O‘zbekistonda gender tenglik, ayollarning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy hayotidagi o‘rnini tahlil qilishda, Samarqand viloyati xotin-qizlarining ijtimoiy-

⁷⁵ Samarqand viloyati hokimligining 2020–2024-yillar hisoboti.

⁷⁶ Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi raisi O. Parpiboyeva ma‘ruzasi. 2023.10.04. <https://wcu.uz/oz/lists/view/526>

⁷⁷ Saidov A. Ilm-fan sohasida xotin-qizlarning o‘rni va ahamiyati: ma‘naviyat, tinchlik va bunyodkorlik tushunchalari talqinida // <http://nhrc.uz/uz/articles/ilm-fan-soasida>

⁷⁸ Prezident Administratsiyasi arxivining Samarqand viloyat bo‘limi, 1552-fond, 1-ro‘yxat.

⁷⁹ Hasanova N. O‘zbekistonda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlardagi ishtiroki (1991–2021-yillar Andijon viloyati misolida)”. Tarix fanlari bo‘yicha PhD avtoreferati. – Andijon, 2024. – B.20.

iqtisodiy muammolari yuzasidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlar va ilmiy izlanishlarni guruhlashtirish natijasida olingan natijalar tadqiqot uchun muhim nazariy-metodologik ahamiyatga ega bo'ldi. Biroq mavjud ishlarda tadqiqot obyekti Markaziy Osiyo davlatlari, alohida O'zbekiston Respublikasi yoki boshqa hududlar misolida o'rganilgan. Respublika tadqiq etilgan ishlarda ijtimoiy-iqtisodiy muammolar, ya'ni demografiya, ijtimoiy holati, mehnat bandligi, huquqiy muammo va boshqalar Samarqand viloyati misolida kompleks ochib berilmagan. Xotin-qizlar masalasi fan sohasining turli yo'nalishlarida falasafiy, iqtisodiy, pedagogika sohalarida o'rganilgan. Ammo tarixiy tahlil jihatdan o'rganilmagan. Bu esa ushbu tadqiqot ishini oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalarni to'g'ri ekanligini va mazkur dissertatsiya "O'zbekistonning eng yangi tarixi" fanida mavjud bo'lgan ilmiy bo'shliqlarni to'ldirishga xizmat qiladi va shuning uchun dolzarb hisoblanadi.

2. O'zbekiston mustaqillikka erishgan birinchi yillardan boshlab, inson huquqlariga oid asosiy qoida va g'oyalarni o'ziga sindirgan barcha huquqiy hujjatlarda gender tenglik huquq va erkinliklarini himoya qilish, har bir jinsni oilaviy munosabatlarda o'z huquqlaridan to'laqonli foydalanishlari uchun imkoniyatlar yaratishga yo'naltirilgan milliy qonunchilik bazasi yaratildi. Hozirda mamlakatimizda xotin-qizlar huquqlarini ta'minlash va himoya qilishning huquqiy asoslari yanada takomillashtirilgan, gender tenglik bo'yicha huquqiy institutsional tuzilmalarning faoliyati yo'lga qo'yilgan. O'zbekistonda xotin-qizlarning huquq va erkinliklarining o'ziga xos xususiyati va xarakterli jihati sifatida uning yirik xalqaro huquq normalarini nazorat qiluvchi tashkilotlar bilan hamohanglikda milliy an'ana va qadriyatlar poydevori asosiga qurilganligida hisoblanadi.

3. Samarqand viloyati xotin-qizlarining ijtimoiy himoyalash, oila mustahkamligini ta'minlash va nikoh munosabatlari mustaqillik yillarida respublika miqyosida umumiy tarixiy jarayonlarning tarkibiy qismi sifatida viloyat tumanlarida xotin-qizlar demografik munosabatlarida namoyon bo'ldi. Nikoh munosabatlarining viloyatga xos bo'lgan asosiy jihatlari sifatida tumanlar kesimida quyidagi xususiyatlar kuzatildi: Tayloq va Urgut tumanlarida qizlarning erta turmushga berilishi kabi holat viloyatning boshqa hududlariga nisbatan ko'proq hisoblanadi.

4. 1991–2022-yillarda xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal qilish, oiladagi mavqeini oshirish, ularning jamiyatdagi faol ishtirokini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar Samarqand viloyatining barcha tumanlari bo'yicha tahlil etildi. Ayniqsa, viloyatning Samarqand shahri va Samarqand tumani, Kattaqo'rg'on, Ishtixon, Oqdaryo tumanlaridagi bir qator mahallalarda xotin-qizlarni ijtimoiy himoyalash va oila mustahkamligini ta'minlash, oilaviy ajrimlarning kuzatilishida oiladagi nosog'lom muhit, erta nikoh holatlari, og'ir ijtimoiy turmush tarzi, iqtisodiy yetishmovchilik kabi bir qator muammolar aniqlandi.

5. Viloyatning mavjud mahallalari tomonidan erta turmush va erta tug'ruq holatlari, olaviy ajralishlarning oldini olish, ayollarning ma'naviyat-axloqiy, huquqiy va tibbiy savodxonligini oshirish borasida hamkor tashkilotlar bilan ko'plab tadbirlar o'tkazilgan. Ajralish yoqasiga kelib qolgan, notinch va noqobil, muammoli olalar muammolarini bartaraf etish, ularni yarashtirish jarayonlarida hamkorlik

qilingan hududiy FHDYo va viloyat sudining bo'limlari, Nuroniylar maslahat kengashi, Yoshlar agentligi xodimlari hamda Samarqand davlat univertitetining professor-o'qituvchilari va ommaviy axborot vositalarining munosib hissalarini bor. Shu bilan birgalikda, viloyatda nikoh va oila qurish salmog'i respublikada yuqori darajada turgani kabi, nikohlar buzilishi, oilalarning ajralib ketishi bo'yicha muayyan o'rinda turadi.

6. Tahlil etilgan davrda nikohdan ajralishlar soni bo'yicha Samarqand shahri, Samarqand tumani, Ishtixon, Payariq, Tayloq, Kattaqo'rg'on va boshqa tumanlarida sezilarli oshganligini ko'rishimiz mumkin. Samarqand viloyatida o'tgan yillarga nisbatan 2021-yilga kelib xotin-qizlar, o'z joniga qasd va suiqasd holatlari kamayishini ko'rishimiz mumkin, bu ishlarda oila va xotin-qizlar boshqarmasi xodimlari, mahalla xotin-qizlar faollarining va mutassadi tashkilotlarning xizmati katta ekanligini ko'rsatadi.

7. Samarqand viloyati demografiyasida xotin-qizlarning shahar va qishloqlar kesimidagi ulushi o'ziga xos bo'lib, bu ko'rsatkich istiqbol davrida deyarli aholining yarmini tashkil etganligini ko'rishimiz mumkin. Viloyatda fuqarolarning ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini tahlil qilish natijasida, ishsiz xotin-qizlar kasbga yo'naltirish, mehnat bandligini ta'minlash yuzasidan davlat dasturlari asosida ma'lum chora-tadbirlar amalga oshirilgan. Bular jumlasiga kurslarni o'qitish, kreditlar ajratish orqali kichik biznes, ishlab chiqarish, tadbirkorlikka yo'naltirilgan. Respublikadagi holat singari, viloyatimizda ham xotin-qizlarning iqtisodiy faolligi, asosan ma'lumoti darajasi yetarli emasligi, muayyan kasb sohalarining mutaxassisi emasligi ayollar asosan haq to'lanmaydigan ishlarga (uy xizmati, oila a'zolariga qarash va b.) bog'liq ekanligi aniqlandi.

8. Respublikadagi singari Samarqand viloyati xotin-qizlarining ilm-fan, ta'lim va innovatsiyalar sohasida hissasi munosib bo'lib, ular ilm-fan va ta'lim, xususan, oliy ta'lim sohasi isloh etilib, jahon standartlariga moslashtirilayotgani sababli bu yo'nalishda ham katta natijalarga erishmoqdalar. Samarqand viloyatida bugungi kunda 15 ga yaqin oliy o'quv yurtlari va uning filiallarida ilmiy ish bilan shug'ullanayotgan xotin-qizlar soni 3 mingdan ortiq hisoblanadi, ular orasida o'z bilimi tajribasi va professionalligi bilan mehnat qilib kelayotgan rahbar ayollar ham mavjud. Shuningdek, ilm-fan sohasida ham bartaraf etilishi lozim bo'lgan bir qancha muammolar mavjud. Xususan, ayollarning umumiy ilmiy darajasi ulushining pastligi, olimlar o'rtasida o'rtacha yoshning yuqoriligi, moddiy jihatdan qiyinchiliklar (xizmat safarlari xarajatlari, maqola va ilmiy ishlarni chop etishga xarajatlar, olimlarning mahalliy va xalqaro doirada o'zaro aloqa-tajriba almashishning sustligi, ilmiy tadqiqotlar olib borish bo'yicha metodik jihatdan maslahat beruvchi markazlarning yo'qligi va xorijda chop etilgan ilmiy maqolalarning kamligi shular jumlasidan sanaladi).

Tadqiqot ishi natijalariga ko'ra, ilmiy xulosa va aniqlangan muammolar yuzasidan quyidagi **taklif va tavsiyalarni** ilgari surish mumkin:

1. Respublikada mavjud nufuzli ommaviy axborot vositalarida jamiyat taraqqiyotiga munosib hissa qo'shib kelayotgan xotin-qizlarning mehnat faoliyatini

targ'ib etishga qaratilgan ko'rsatuvlar, eshittirishlarni kengaytirish va ko'paytirish maqsadga muvofiq.

2. Hududlardagi mahallalar qoshida xotin-qizlarning huquqiy savodxonligini oshirish, ijtimoiy muammolarini hal qilishga qaratilgan "Kelajak ayoli" maslahat markazlarini tashkil etish maqsadga muvofiq.

3. Samarqand viloyati xotin-qizlarining ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini bartaraf etish yuzasidan viloyatning oliy ta'lim muassasalari, idoralari va Oila va xotin-qizlar boshqarmasi bilan hamkorlikda amaliy loyihalarni amalga oshirish lozim.

4. Ushbu ilmiy tadqiqot materiallari asosida monografiya chop etish.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/06.04.2024.Tar.20.05 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ САМАРКАНДСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ
ИМЕНИ ШАРОФА РАШИДОВА**

**САМАРКАНДСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ ШАРОФА РАШИДОВА**

РУСТАМОВА МАДИНА МУСОКУЛОВНА

**СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ ЖЕНЩИН
УЗБЕКИСТАНА В 1991-2022 ГОДАХ И ПУТИ ИХ
РЕШЕНИЯ: ИСТОРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ
(на примере Самаркандской области)**

07.00.01 – История Узбекистана

**АВТОРЕФЕРАТ
ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО ИСТОРИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Самарканд - 2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) по историческим наукам зарегистрирована в бюллетене Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций за № V2024.4.PhD/Tar2126.

Диссертация выполнена в Самаркандском государственном университете имени Шарофа Рашидова.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) размещен на веб-странице Ученого совета (www.samdu.uz) и Информационно-образовательном портале "ZiyoNET" (www.ziyo.net.uz).

Научный руководитель:

Нормуродова Гузал Бекмуродовна
доктор исторических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Аминова Азиза Марксовна
доктор исторических наук, доцент

Эргашева Юлдуз Алимовна
доктор исторических наук, профессор

Ведущая организация:


Каршинский государственный университет


Защита диссертации состоится "25" апреля 2025 года в 14:00 часов на заседании научного совета за № DSc.03/06.04.2024.Tar.20.05 в Самаркандском государственном университете имени Шарофа Рашидова. (Адрес: 140104, город Самарканд, Университетский бульвар, 15. Тел.: (99866) 239-11-40, (99866) 239-18-92; Факс: (99866) 239-11-40; e-mail: rektor@samdu.uz).


С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Самаркандского государственного университета имени Шарофа Рашидова (зарегистрирована за № 33) (Адрес: 140104, город Самарканд, Университетский бульвар, 15). Тел.: (99866) 239-11-40, (99866) 239-18-92; факс: (99866) 239-11-40.

Автореферат диссертации разослан "11" апреля 2025 года.
(реестр протокола № 1 от "11" апреля 2025 года.




Б.Э. Эргашев
Председатель научного совета
по присуждению ученых степеней,
д.и.н., профессор


Ф.А. Нарманов
Ученый секретарь научного совета
по присуждению ученых степеней, PhD


И.М. Саидов
Заместитель председателя научного семинара
при научном совете по присуждению ученых степеней,
д.и.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и необходимость темы диссертации. В настоящее время в условиях глобализации определение истинного равноправия женщин и мужчин рассматривается как основа социального прогресса и устойчивого развития общества. Поэтому принципы равноправия и недискриминации прав человека последовательно развиваются и укрепляются во всех международно-правовых документах. В связи с этим с 1996 года ООН ввела еще один индекс гуманитарных критериев, который связан с обеспечением четкого равенства между женщинами и мужчинами, расширением прав и возможностей женщин, ликвидацией гендерного неравенства.

В настоящее время в мировом масштабе международными центрами накоплен достаточно большой опыт по решению гендерных проблем. В соответствии с этим разработаны государственные программы, проекты и стратегии, направленные на достижение устойчивого развития человека, которые помогут развить понимание необходимости применения и учета сбалансированного подхода с гендерной точки зрения. На основании этого научное исследование гендерных исследований на примере Узбекистана является одним из актуальных вопросов современности.

Одним из больших достижений гуманитарной стратегии Нового Узбекистана является коренное изменение государственной политики в отношении женщин. В этой связи Президент Ш.Мирзиёев заявлял, что «в обществе, где обеспечены права и интересы женщин, обязательно будут царить мир, справедливость и благополучие»⁸⁰. В последние годы все больше ощущается необходимость изучения женской проблематики на примере отдельных регионов республики. Это, в свою очередь, служит предотвращению и поиску решений проблем в общественно-политической и экономической жизни женщин. С этой точки зрения в данной диссертации на примере Самаркандской области была поставлена цель четко и последовательно проанализировать социально-экономические проблемы женщин в 1991-2022 годах. Это определяет актуальность темы исследования в области науки.

Данная диссертация послужит в определенной степени реализации задач, указанных в Законах Республики Узбекистан «О защите женщин от притеснений и насилия» от 2 сентября 2019 года за № ЗРУ-561, «О гарантиях равных прав и возможностей женщин и мужчин» от 2 сентября 2019 года за № ЗРУ-562, в Постановлении Сената Олий Мажлиса Республики Узбекистан «Об утверждении стратегии достижения гендерного равенства в Республике Узбекистан» от 28 мая 2021 года за № ПС-297-IV, а также в Указах Президента Республики Узбекистан «О мерах по коренному совершенствованию деятельности в сфере поддержки женщин и укрепления института семьи» от 2 февраля 2018 года за № УП-5325, «О Стратегии развития Нового Узбекистана

⁸⁰ Электронный ресурс: Выступление Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева на торжественной церемонии, посвященной Международному женскому дню // Yangi O'zbekiston, 2021-yil mart.

на 2022-2026 годы» от 28 января 2022 года за № УП-60 и других нормативно-правовых документах по данной теме.

Связь исследования с приоритетными направлениями развития науки и технологий республики. Диссертационная работа выполнена в рамках Приоритетного направления развития науки и техники республики I. «Формирование системы социальных, правовых, экономических, инновационных идей информированного общества и демократического государства и пути их реализации».

Степень изученности проблемы. За годы независимости были предприняты значительные меры по усилению роли женщин во всех сферах жизни общества, защите их прав и законных интересов. Анализируя научную литературу, диссертационные исследования и зарубежные публикации, посвященные изучению положения женщин в социально-экономических и демографических процессах, по их содержанию, месту реализации и выдвинутым научным выводам могут быть выделены на: 1) исследования, проводимые в Узбекистане и 2) зарубежные исследования.

Широкий анализ историографических работ по этой теме отдельно и подробно изложен в первом абзаце главы 1.

Связь темы диссертации с научно-исследовательской работой высшего учебного заведения, в котором проводится исследование.

